

**IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARDA YAKKA TARTIBDAGI  
TA'LIM TARBIYANING TASHKILIY ASOSLARI.**

*Joniyeva Tursunoy Boboxon qizi*

*Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

*Ashurova Shohsanam*

*Termiz davlat pedagogika instituti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Imkoniyati cheklangan bolalarni yakka tartibdagi ta'lism tarbiyasining tashkiliy asoslari va bu ta'lism to'g'risida qabul qilingan qonunlar to'g'risida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Imkoniyati cheklangan bolalar, maxsus ta'lism, ta'lism va tarbiya, olegofrenopsixologiya.

BMT Bosh Ansabiliyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda bir ovozdan qabul qilingan Bolalarni kamsitmaslik-konvensiyaning muhim tamoyillaridan hisoblanadi. Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiya 1990-yil 2-sentiyabrdan kuchga kirgan unga O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 9-dekabrdan qo'shilgan.

2020-yil 13-oktyabrdan "Alovida ta'lism ehtioiyjlari bo'lgan bolalarga ta'lism tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4860-son qarori qabul qilindi. Bu hujjat qonun hujjatlari qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasida e'lon qilingan va 2020-yil 14-oktiyabrdan kuchga kirgan. Hujjatga ko'ra 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida Inklyuziv ta'lismni rivojlantirish konsepsiysi va 2020-2021-yillarda uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tuzib chiqiladi. 16-yoshgacha nogironligi bo'lgan bolalar deganda jismoniy, aqliy, ruhiy yoki sensor(sezgi) nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nogiron deb topilgan hamda ijtimoiy yordamga va himoyaga muhtoj shaxslar tushuniladi.

Bola huquqlari kafolatlari to'g'risidagi qonunning 3-bob Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlarining qo'shimcha kafolatlari 29-moddasida: Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolarning ta'lism olish huquqlari kafolatlari Davlat maxsus pedagogic yondashuvga ehtiyoji bo'lgan ijtimoiy himoyaga muhtoj bolarning belgilangan ta'lism standartlari va ta'alablari darajasida bilim olishlariini kafolatlovchi zarur mablag'lar ajratadi, hamda, boshqa choralar ko'radi.

Uyda yakka tardibda ta'lism berishning asosiy maqsadi o'quvchilarning ta'lism olishga bo'lgan huquqlarini ta'minlash hamda ularning ta'lism olishlari uchun zarur sharoit yaratishdan iborat.

Uyda yakka tartibda ta'lism berishning asosiy vazifalari:

- O'quvchilarning umumiy o'rta ta'limgan davlat ta'lim standartlari hamda ular asosida ishlab chiqilgan (Aqli zaif bolalar uchun) maxsus ta'lim talablariga muvofiq bilim olishlarini ta'minlash.
- Barkamol, jismonan va ma'naviy sog'lom shaxsni voyaga yetkazish, o'quvchilarg madaniy-ma'rifiy qadriyatlarni, fuqarolik va vatanparvarlik hislarini shakillantirish.
- Ta'lim berish jarayonida o'quvchilarning sog'ligini himoyalovchi dars jadvaliga rioya etilishini ta'minlash.

Inkilyuziv ta'lim – bu maxsus ta'lim extiyoylari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha taxsil oluvchilar uchun ta'lim muassasalarida ta'lim olish imkoniyatini teng ravishda ta'minlashdir.

Barkamol shaxsni tarbiyalashda ularning ruhiy jarayonlarining rivojlanishini ayniqsa imkoniyati cheklangan alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning ruhiy jarayonlarini xususiyatlarini bilish difektolik mutaxasislar uchun kata ahamiyatga ega.

“Maxsus psixologiya” o'quv qo'llanmasi to'rt bo'limdan iborat bo'lib, birinchi bo'lim olegofrenopsixologiya, ikkinchi bo'lim sudropsixologiya, uchunchi bo'lim logopsixologiya va to'rtinchi bo'lim tiflopsixologiya deb nomlangan.

Olegofrenopsixologiya- aqli zaif bolalar psixologiyasi. Maxsus psixologiyaning bir tarmog'I bo'lib, aqli jihatdan turli darajada miyyordan cheklangan bola va o'quvchilarning ruhiy qonuniyatlarini o'rganadi. Maxsus psixologiya nuqsonli bolalarning ruhiy qonuniyatlarini o'rganuvchi fan bo'lib, quyidagi qisimlardan iborat:

1. Ko'zi ojzlar psixologiyasi ( Tiflopsixologiya ).
2. Kar saqovlar psixologiyasi ( Sudropsixologiya ).
3. Aqli zaiflar psixologiyasi ( Olegofrenopsixologiyasi ).
4. Nutqi buzilgan bolalar psixologiyasi.
5. Psixik jihatdan orqada qolgan bolalar va rivojlanishda turli o'zgarishlar bor bo'lgan bolalar psixologiyasi.

Nuqsonli bolalar ichida aqli zaif bolalar ruhiyati nisbatan mukammal o'rganilgan tarmoqdir. Ammo bu tarmoq ham normal bolalar ruhiyatiga nisbatan birmuncha keng atroficha o'rganilmagan. Aqli zaif bolalar psixologiyasi fanining maqsad va vazifalari shu toifa bolalarning ruhiy xususiyatlari haqidagi bilimlar bilan difektoglarni, olegofreno pedagoglarni qurollantirishdan iborat. Aqli zaif bolalar ta'lim tarbiyasi korreksiyasini to'g'ri tashkil qilish uchun bu bolalarning xususiyatlari haqida bilimlar juda zarur.

Ma'lumki har bir fan o'zining yuzaga kelish rivojlanish, taraqqiy qilish tarixiga qonuniyatlariga ega, shu singari aqli zaif bolalar psixologiyasi fani ham ma'lum rivojlanish tarixiga ega. Aqli zaif bolalar ruxiyatini o'rganishning mumkinligi va zarurligi tibbiyot, xususan psixiatreyaning rivoji bilan uzbek bog'liq. XVII-asr oxirlari XIX-asr boshlarida aqli zaif bolalarni davolash, tatbiyalash, o'qitishga oid ma'lum ijodiy qarashlar yuzaga keldi va shakillana boshladi. Shuni eslatib o'tish joizki aqli zaif

bolalar ta’lim tarbiyasida dastlab asosan aqli nuqsoni og’ir darajadagi bolalar ustida boshlangan. 1858-yilda rus pedagogi N.A.Dobrolyubov tomonidan aqli zaif bolalarning o’ziga xos xususiyatlari ochib berildi. Uning ko’rsatishicha “faollikning pastligi”, “sekin idrok qilish”, “quruq yodlashning ustunligi”, “bir xildagi harakatlar”, “yangi sharoitlarga yomon moslashish”, “bilimlarni to’g’ri ishlata olmaslik” – aqli zaif bolalarga xos xususiyatlar ekan. Hozzirgi paytda aqli zaif terminini o’rniga unining sinonimlarini ishlatishga harakat qilinmoqda negaki bu termin bolani faqat aqliy jihatdan noadekvatligini bildiradi. U esa motorika, hissiy-irodaviy doira va bir butun shaxsiy yetishmovchiliklarga ega. Undan tashqari tashxisning u shakli ota-onalarga og’ir botadi. Alovida yordamga muhtoj bolalar Imkoniyati cheklangan bolalar” deb yuritilmoqda.

Aqli zaif bolalarni ayrim qismi ommaviy umumta’lim maktablarida tashkil qilingan karriksion rivojlantirish ta’lim sinflarida o’qiydilar, hamda uy sharoitida individual o’qitiladi. Bolada murakkab nuqsonning borligi uning rivojlanish, yo’nalishini tormozlaydi, nuqsonlarning koreksiyalash imkoniyatini kamaytiradi, o’quv tarbiyaviy jarayonini tashkil qilishni sezilarli qiyinlashtiradi. Bunday bolalar bilan muvofaqqiyatlari ish olib boorish e’tibor va keng bilim doirasiga ega bo’lishni talab qiladi. Murrakab nuqsonli bolalar alovida muammoni yuzaga keltiradilar, ular maxsus o’rganilishi kerak. Lekin bu turdagi tadqiqotlar juda kam. Aqli zaif bolalarga og’izaki mantiqiy fikrlashbuzilishi xotiraning, idrokning, ixtiyoriy diqqatning buzilishlari xosdir. Mana shu umumiyy psixologik xususiyatlarni hisobga olib o’quv darsliklari va darsliklar tuziladi, maxsus usullar ishlab chiqiladi va sinflarda frontal ishlar tashkil qilinadi. O’zigfa xos xususiyatlari bilan sinfdoshlaridan keskin farq qiluvchi ayrim o’quvchilar ham uchraydi, shuningdek bola u joyda juda bo’sh mo’ljalga noladi, bu uni yozish, o’qish, matematika va boshqa predmetlarga o’qitishda qiyinchilik tug’diradi. O’quvchi individual yondashishga muhtoj, busiz u o’quv dasturini o’zlashtirolmaydi.

Xulosa qilib aytganda men imkoniyati cheklangan bolalarni yakka tartibdagi ta’lim tarbiyasiga berilayotgan imkoniyatlar ularning barcha bolalar singari ta’lim olish jarayonlariga individual yondashuvlar albatta o’z samarasini berishi va ular jamiyatda o’z o’rinlariga ega bo’lishlariga sabab bo’ladi deb o’ylayman. Hozzirgi kunda bunday bolalarning “Aqli zaif” – terminini o’rniga “Imkoniyati cheklangan bolalar” deb yuritilishi bu bolalar uchun hamda mana shunday bolani tarbiyalayotgan onalar uchun og’irlik qilmaydi. Har bir ota-onasi bolasi sog’lom yoki imkoniyati cheklangan bola bo’lishidan qat’iy nazar ularning ta’lim tarbiya olishini va jamiyatda o’z o’rnini topgan shaxs bo’lib shakllanishini xoxlaydi. Bunaqa bolalarning tug’ilishiga ko’plab omillar sabab bo’lishi mumkin. Masalan: Qarindoshlar o’rtasidagi nikoh, Endogen va Ekvogen omillar, onaning yuqimli kasalliklar (qizilcha, xomilaning alkagol bilan zaxarlanishi, narkotiklar, dorilarni haddan ziyod qabul qilish onaning Endokren kasalliklari, xromsoma buzilishlari) muhim rol o’ynaydi. Ona qornida rivojlanish davrida tug’riq

paytida va bir-bir yarim yoshida olingen miyya shkastlanishlari ma'lum ahamiyatga ega. Shu bilan bir qatorda hozzirgi iqtisodiy va ekologik vaziyat ham kata rol o'rnaydi. Bunday bolalar ro'xiyati birmuncha keng va atroficha o'rganilmagan ular uchun maxsus o'rganilishi kerak bo'lgan tatqiqotlar kam bo'lishiga qaramasdan berilgan maxsus psixologiya, pedagogika o'quv qo'llanmalaridan foydalangan holda ular bilan individual tarzda ishslash kerak bo'ladi va bu jarayonlar asta sekinlik bilan bo'lsada bunday bolalar hayotida ijobjiy burilishlar yasaydi. Imkoniyati cheklangan bolalarning umumta'lim ommaviy mактабида qolishi ko'pincha unga hech qanday foya keltirmaydi va bir qator xollarda jiddiy oqibatlarga olib keladi. Uning shaxsiyatida doimiy keskin salbiy siljishlar sodir bo'ladi. Ular uchuun ko'pincha individual xususiyatlariga ko'ra va ota-onalar iltimosiga binoan uyda tarbiyalanadilar va o'qitiladilar.

Men bunday bolalar uchun imkoniyatlar ko'payishiga ishonaman. “ Bolaning begonasi bo'lmaydi ” degan naqlida ish yuritsa jamiyatda har bir bola o'z imkoniyat darajasidan kelib chiqib o'rnini topadi.

### **Foydalaniлган адабиётлар ро'yxати**

1. Mirziyoev SH.M. [Erkin va farovon](#), demokratik O'zbekiston davlatini bиргаликда barpo etamiz. – T.: “O'zbekiston”, 2016. – 56 b.
2. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 104 b.
3. Oila pedagogikasi /O.Hasanboyevaning umumiyl tahriri ostida. - T.: Aloqachi, 2007. - 384 b.
4. qizi Joniyeva TB MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDA XALQ PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI //Jahon ilmiy qarashlari tahlili International Scientific Journal. – 2023. – T. 1. – Yo'q. 6. – 25-34-betlar.
5. qizi Joniyeva TB MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASHDA XALQ PEDAGOGIKASINING AHAMIYATI //Jahon ilmiy qarashlari tahlili International Scientific Journal. – 2023. – T. 1. – Yo'q. 6. – 14-19-betlar.
6. T.B.Joniyeva XALQ PEDAGOGIKASINING AXLOQIY TARBIYALASH ISHLARIDAGI AHAMIYATI //OLTIN MIYA. – 2023. – T. 1. – Yo'q. 28. – 121-125-betlar.
7. T.B.Joniyeva MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDA XALQ PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISH TAJRIBA SINOV ISHLARI SAMARADORLIGI //OLTIN MIYA. – 2023. – T. 1. – Yo'q. 3. – 315-317-betlar.